



## O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONIDA XORIJIY TILLARNI

**Sodiqova Mumtozbegin Olimjon qizi**

*O'zbekiston Davlat Jahon tillari universitetining Xorijiy til va adabiyoti fakultetining 1-  
bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ta'lim jarayonida xorijiy tillarni, ya'ni aynan ingliz tilini o'qitishning zamonaviy va qulay metodikasi hamda bog'cha yoshidagi bolalarda ingliz tiliga qiziqish uyg'otishning innovatsion usullari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek ingliz tilining maktabgacha ta'lim tizimining taraqqiyotida tutgan o'rni xususida.

**Kalit so'zlar:** ingliz tili, innovatsion usullar, samarali metodika, islohotlar, til o'rganishga bo'lgan talab, o'yin faoliyati, konsepsiya

Hamмамizga ma'lumki, bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida misli ko'rilmagan islohot va o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ta'limning poydevori hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimiga davlat tomonidan tizimli va bir-birini to'ldiruvchi amaliy yordam ko'rsatilmoqda. Xususan, muhtaram prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" ishlab chiqildi. Konsepsiya O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgiladi hamda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ldi.

Endi esa maktabgacha ta'lim tushunchasi haqida to'xtaladigan bo'lsak, u uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib o'qitishga tayyorlab beradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar bog'chalarida va oilada amalga oshiriladi. Uning maqsadi bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga bo'lgan qiziqishini ("curiosity") tarbiyalashdir. Dunyo bo'ylab xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish va talab kundan kunga oshib bormoqda. Ayniqsa, ingliz tilini bilish bugungi kunning talabiga aylandi. Shu tufayli rivojlangan davlatlar qatori O'zbekiston ham til bo'yicha islohotlarni maktabgacha ta'lim tizimidan boshladi va tillarni o'rgatish uchun mutaxassislar



tomonidan metodlar ishlab chiqildi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, agar metod bo'lmasa har qanday tilni o'rganish mushkildir, ayniqsa, bu bolalarga qiyinchilik tug'dirishi aniq. Shuni o'ylagan holda, hozirda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasida ingliz tilini o'rgatish maqsadida qulay va innavatsion usullardan foydalanilmoqda. Jumladan, imitatsiya usuli ("imitation"), so'zlarni turli o'yinlar bilan o'rgatish, medialar, ya'ni qo'shiqlar va multafilmlar yordamida.

**Grammatikani o'rgatish.** Bilamizki, yosh bolalarga grammatikani o'rgatish murakkab va ular qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Kichik yoshdagi bolalarga grammatik qoidalarni aniq o'rgatishning keragi yo'q, aksincha ularni eshitish va kontekstda turli grammatik tuzilgan gaplardan foydalanishga odatlantirish kerak. Masalan, kimningdir tashqi ko'rinishi haqida gapirganda "have" yoki qoidalar haqida gapirganda "must/mustn't". Bolaligidanoq kontekstda ishlatilayotgan grammatikani eshitishi bola katta bo'lganda undan tabiiy va to'gri foydalanishga yordam beradi.

**Avval qaysi so'z va iboralarni o'rgatish kerak.** Qaysi mavzularni o'rgatish kerakligini hal qilishda bolaning qiziqishlari va shaxsiyatini hisobga olish kerak. Masalan, ushbu mavzulardan boshlash mumkin:

Numbers

Colors

Adjectives (e.g. big, small, tall, happy, sad, tired)

The body

Toys

Clothes

Animals

Food

**O'yin o'ynash.** Bolalar zavqlanayotganda tabiiy ravishda o'rganadilar. Kartalar lug'atni o'rgatish va qayta ko'rib chiqishning ajoyib usuli. Va yana Memory, Kim's game, Snap yoki Happy families kabi kartalar bilan o'ynash mavjud bo'lgan ko'plab o'yinlar mavjud.

**Hikoya/ertaklardan** foydalanish. Yosh bolalar yorqin ranglar va illyustratsiyalari bo'lgan kitoblarni yaxshi ko'rishadi. Pedagog birgalikda rasmlarga qarashi va rasmlarni ko'rsatib so'zlarni aytishi kerak. Keyinchalik, boladan turli narsalarni ko'rsatishini so'rashi lozim. Masalan, "Mushuk qayerda?" Biroz vaqt o'tgach "Bu nima?" deb so'rab, ularni so'zlarni aytishga undash, ertaklarni tinglash bolani ingliz tilidagi tovushlar va ritmlarga o'rgatadi.



**Qo'shiqlardan foydalanish.** Qo'shiqlar haqiqatan ham yangi so'zlarni o'rganish va talaffuzni yaxshilashning samarali usuli. Harakatli qo'shiqlar, ayniqsa, yosh bolalar uchun juda yaxshi, chunki ular qo'shiqni kuylay olmasalarda qo'shila oladilar. Harakatdan foydalanish esa so'zlarning ma'nosini eslab qolishga yordamlashadi.

**Olingan ko'nikmalarni mustahkamlash uchun jumboq o'yinlardan foydalanish.** Bolani yoshlik chog'idan boshlab ingliz tiliga bo'lgan qiziqishlarini oshirib borish kerak, uni xato bo'lsada gapirishga majbur qilish kerak, ana shundagina bola o'z oldidagi to'siqlarni yengib o'tib, qo'rqmasdan gapira oladi. Agar chet tili darsi dars emas, balki o'yin shakliga keltirilsa bolalarning qiziqishi yanada ortadi. O'yin - bu ham tashkil etish shakli, ham bolalar ma'lum miqdorda to'planadigan darslarni o'tkazish usuli inglizcha so'z boyligi, ko'plab she'rlar qo'shiqlar, qofiyalarni sanash va boshqalar.

Darslarni o'tkazishning ushbu shakllari til ko'nikmalarini va nutq qobiliyatlarini o'zlashtirish uchun qulay sharoit yaratdi. O'yin faoliyatiga ishonish qobiliyati chet tilida nutq uchun tabiiy turtki berishga, hatto eng oddiy iboralarni ham qiziqarli va mazmunli qilishga imkon berdi. Misol uchun Farg'ona viloyati Furqat tumani Temiryo'lchi-9 ko'chasida joylashgan "Maftuna, Mumtoz begim orzusi" nomli maktabgacha ta'lim muassasasini olishimiz mumkin. Ushbu muassasada yuqorida sanab o'tilgan metodlardan foydalanilgan va yaxshi natijalarga erishilgan, ya'ni tilni qiziqarli usulda medialar orqali o'rgatish tufayli, hozirda muassasani tamomlagan bolalar maktabda nafaqat ingliz tili fanidan, balki boshqa fanlardan ham a'lo baholarga o'qishmoqda.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda tilga qiziqish uyg'otish va darslarni qiziqarli ravishda o'tishni takomillashtirish kerak, zero "Til bilgan - el biladi". Quvonarlisi shundaki, yurtimizda bunday islohotlar amalga oshirilmoqda va ta'lim tizimining poydevori bo'lgan bog'chalarda ta'lim sifati kundan kunga oshib bormoqda. Bu albatta, sifatli pedagoglar va tarbiyachilar, ularning pedagogik metodlari sababli amalga oshirilmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Bekmurodova U.B "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" Toshkent - 202012-yil.
2. "Kindergarten teaching guide" by Liz Miles, Oxford University press, 2015.



3. Mustafoyeva.S “Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o’rgatish usullari”